

MODERN APPROACHES TO THE SYSTEM OF TEACHING AND LEARNING A FOREIGN LANGUAGE (IN THE CASE OF BLIND PEOPLE WITH DISABILITIES)

Beg'amova S. Shahrizabz

Davlat Pedagogika instituti Xorijiy til va adabiyot yo'nalishi 2- bosqich talabasi

Annotatsiya

The article deals with the education of needy children with special support, including children with visual impairments, and work to eliminate their impairments. It focuses on the problems encountered in learning a foreign language by people with disabilities (the blind) and their solutions.

Keywords: Speaking, Minimonic, Braille, Articulation, Illusion, Perceptive, Typhlopedagogy, Phonetics.

Современные подходы к системе преподавания и изучения иностранного языка (на примере слепых людей с ограниченными возможностями здоровья)

Аннотация

В статье речь идет о воспитании детей, нуждающихся в особой поддержке, в том числе детей с нарушениями зрения, и работе по устранению их нарушений. Основное внимание уделяется проблемам, возникающим при изучении иностранного языка людьми с ограниченными возможностями (слепыми) и их решениям.

Ключевые слова: Говорение, Минимоника, Брайль, Артикуляция, Иллюзия, Перцептив, Тифлопедагог.

Xorijiy tilni o'qitish va o'rgatish tizimiga zamonaviy yondashuvlar (Imkoniyati cheklangan ko'zi ojizlar misolida)

Anotatsiya

Maqolada alohida yordamga ega, muhtoj bolalar ta'lim tarbiyasi, shu jumladan ko'rishida kamchiliklari bo'lgan bolalar va ularni kamchiliklarini bartaraf etish



yuzasidan olib boriladigan ishlar. Imkoniyati cheklangan (ko'zi ojiz)larning chet tilini o'rganishda uchraydigan muammolari va ularning yechimiga qaratilgan.

Kalit so'zlar:Speaking, Minimonika, Braille, Artikulatsiya, Iilyuziya, Perseptiv, Tiflopedagogika, Fonetika.

Tarixan metodlar to'rt guruhga birlashtirilib, ularning nomlariga "tarjima", to'g'ri (yoki tarjimasi) , "qiyosiy (yoki ongli-qiyosiy) " , " aralash" so'zlarini aniqlovchi sifatida qo'shib aytiladi. Shunday qilib, chet til o'qitishning bir necha asrlilik tarixidagi barcha metodlar ushbu to'rt toifaga to'plangan. Undan keyingi metod bu "Jarayon metodlari" (faoliyat usullari) tanishish metodi, mashq qilish metodi, qo'llash metodlari kiradi. (Ko'zi ojiz) lar uchun zarur.Tilni o'qitish metodikasiga bag'ishlangan yozma manbalar va muallimlarning kundalik muloqotlarida "o'qish texnikasi", " yozish texnikasi" kabi terminlar tez-tez uchray turadi. O'qish texnikasi deganda, harf birikmasining tovush bilan munosabati, yozish texnikasida esa harfning yozilish qoidalari tushuniladi. Ushbu terminlar qatori "o'qish qoidasi"," yozilish qoidasi" singari sinonimlar ham ishlatiladi. Bu ikki metodik termin qatoriga "talaffuz texnikasi"ni qo'shish o'rinlidir. Uni, boshqacha qilib, " artikulatsiya qoidasi "deyish ham mumkin.Imkoniyati cheklangan (ko'zi ojiz)bolalarning ingliz tilini o'rgatishda ularning fiziologik hamda psixologik imkoniyatlarini hisobga olgan holda, ular uchun maxsus metodlardan foydalangan holda darsliklar yaratish zarur.Bilamizki chet tili ya'ni ingliz tilini o'rgatishda asosan to'rt skill (usul)foydalanamiz.Ular quyidagilar writing, speaking,listening, reading. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolani til o'rganishi va ravon so'zlay olishi uchun asosan bizga speaking ya'ni gapira olish qobiliyati muhim hisoblanadi.Nutqiy va psixik funksiyalarning shakllanmaganligi nafaqat bilish faoliyatining shakllanishiga ta'sir o'tkazadi,balki zaif ko'radigan bolalarning xususiyatlari:ehtiyotlar dinamikasida,ularni qondirishning qiyinligi bilan bog'liq bo'lgan o'zgarishlarni (perseptiv qobilayatlarning yetarlicha rivojlanmasligi); hissiy tassavurlar sohasidagi cheklanganlik bilan belgilangan qiziqishlar doirasining torligi; nazoratni talab qiladigan faoliyat turlariga qobilayatlarning sustlashishi; ichki holatlarning tashqi namoyon bo'lishi cheklanganligi va boshqalarni keltirib chiqaradi.Ko'rish nuqsonlarining mavjudligi xarakter qirralarining(ayniqsa,emotsional-irodaviy sohada) shakllanishiga salar ta'sir qiladigan sharoitlarning yuzaga kelishiga ko'maklashadi,natijada egotsentrizm,mustaqillikning yo'qligi, ishonuvchanlik, negativizm, qiziquvchanlikning yo'qligi va boshqalar shakllanadi.Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarning ko'pchiligida aloqalarning nutqiy tizimlari ko'rgazmali



obrazlarga yetarlicha tayanchsiz shakllanadi,shu sababli so'zlarning muayyan ma'nolari qashshoqlashishi,zarur so'z zaxirasining yo'qligi,nutqning mazmun tomoni yetarlicha rivojlanmasligi kuzatiladi.

Hozirgi kunda nutqni rivojlantirish muammosining dolzarbligi mazkur psixik jarayon inson faoliyati istalgan shaklining ajralmas tarkibiy qismi ekani bilan belgilanadi.Keyingi vaqtda psixologik-pedagogik adabiyotlarda nutqning bilimlarni to'laqonli o'zlashtirish,mantiqiy tafakkur,ijodiy qobiliyatlar va psixik faoliyatning boshqa sohalari rivojlanishining asosi sifatida maktabga tayyorlash uchun alohida ahamiyati haqidagi masala tobora ko'p qo'yilmoqda.

Ko'rish patologiyasi bo'lgan bolalarda nutqning shakllanishi ko'radigan boladan ko'ra murakkab sharoitlarda kechadi.Bolalarda nutqning buzilishi va ko'rishdagi buzilishlar murakkab nuqson bo'lib,bunda nutqiy va ko'rishdagi kamchiliklar o'rtasida ma'lum aloqadorlik va o'zaro ta'sir kuzatiladi. Tiflopedagog va tiflodefektologlar tadqiqotlarida aniqlanishicha,ko'rish nuqsoni tufayli tarbiyalanuvchilarning 30% dan ortig'ida nutqiy yetishmovchilik kuzatiladi.Fisher iilyuziya noto'g'ri taassurot orqali kelib chiqadi degan ta'limotni ilgari surgan.

L.S.Volkova,A.L.Lukoshevichene,S.A.Pokupneva,I.V.Pokupneva,I.V.Novichkova, Ye.V.Shlay va boshqa ishlarida ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarda nafaqat nutqning yaxlit funksional tizim sifatidagi buzilishi bilan kechadigan tizimli buzilishlar (nutqning to'liq rivojlanmaganligi,fonetik-fonematik nutq kamchiligi),balki idrok,xotira,diqqat,tasavvur va mantiqiy fikrlash jarayonlari rivojlanishida og'ishlar ham kuzatilishi o'z tasdig'ini topgan.Shu sababli bunday bolalar syujetni mustaqil rejalashtirish,leksik-grammatik kategoriyalar bilan mustaqil operatsiyalash,nutqiy materialni grammatik rasmiylashtirishda jiddiy qiyinchiliklarni his qiladi.Shu sababli ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarni bog'lanishli monologik nutqqa (ya'ni,o'z fikrini aniq va izchil,mantiqiy tizimli va tugal,leksikadan foydalanishda va mazmunan aniq,grammatik rasmiylashtirishga ko'ra to'g'ri, mustaqil va erkin bayon qilish, jummalarni qurishga)o'rgatish korreksion-pedagogik jarayonda alohida o'rin tutadi.

Nutq tafakkur bilan chambarchas bog'langandir.Odam nutq bo'lmasa,til vositalari bo'lmasa fikr qila olmaydi.Yuqorida aytib o'tilganidek,nutq fikrlash qurolidir.Tafakkur bo'lmasa nutq til bo'lishi ham mumkin emas.Ko'zi ojiz bolalarga ingliz tilida aniq ravon gapira olishlari uchun ularning so'z boyligini oshirishimiz zarur. Bunda bizga zamonaviy leksik lug'atlar yordam beradi.Lug'atlar boshqa chop etilgan lug'atlardan farq qilishi lozim.Negaki,ko'zi ojiz bola sog'lom bolaga nisbatan eslab qolish qobilayati ancha sust rivojlangan bo'ladi.



Olimlarning ta'kidlashicha, ko'zi ojiz bola diqqatini ko'p muddat saqlay olmaydi. Shu sababli ularni jismonan va fiziologik jihatdan toliqmasliklari uchun yangicha metodlardan foydalanish zarur.

Ko'zi ojiz bolalar nutqi, L.S. Vigotskiy, A.N. Leontev ta'kidlagandek, yoshga oid rivojlanishning umumiy qoidalariga bo'ysunadi va yetakchi faoliyat (o'yin, o'qish) bilan belgilanadi, biroq uning shakllanishi me'yori ko'radigan bolalarnikidan murakkabroq sharoitda kechadi. Ko'zi ojiz bolalarga ingliz tilida ravon gapira olishlari uchun minimonika metodi ham yaxshi natija beradi. Bola nuqtalar yordamida chizilgan suratlarni qo'li bilan paypaslash natijasida u haqida tassavurga ega bo'ladi. Rasmlar bolaning kundalik so'zlashuv tilida foydalaniladigan so'zlardan tashkil topgan bo'lib, uning asta-sekin lug'at boyligining oshib borishiga hamda ingliz tilida ravon gapira olishiga yordam beradi. Buning natijasida ularda (critical thinking) ya'ni mantiqiy o'ylashni yaxshilashga ham sabab bo'ladi. Tilshunoslikning yana bir bo'limi Fonetikada tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishga doir ko'plab mashqlar bajarish davomida speaking rivojlanib boradi. Ko'zi ojiz bolalar uchun ham

Xulosa:

Ko'zi ojiz bolalarga ingliz tilini o'rgatishda ko'plab qiyinchiliklarga duch kelinmoqda ulardan biri bu ravon gapira olishdir. Ingliz tilida gapira olishni rivojlantirish uchun ularda yaxshi lug'at bazani shakllantirib olish zarur. Yangi so'zlar ularning xotirasida uzoq vaqt davomida saqlanib qolishi uchun turli xil metodlardan foydalanishimiz mumkin. Til o'rganish jarayonida ularning fiziologik imkoniyatini ham hisobga olish zarur. Ularning til o'rganishiga bo'lgan qiziqishini kundan-kunga orttirib borishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <http://www.gazeta.uz/oz/2022/02/10/president>.
2. kun.uz.
3. N.Z. Abidova (Maxsus psixologiya) Tiflopsixologiya Tashkent _2017
4. Mo'minova L.R. (Maxsus psixologiya)
5. Imkoniyati cheklangan (ko'zi ojiz) bolalar uchun ingliz tili darsliklarini yaratishdagi muammolar (S. Beg'amova, Z. Allayarova) maqola "Ilmiy tadqiqotchilikning o'rni: Muammo va yechimlari" (20-23) bet

